

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 4-iyun chorshanba №22(9555)

Xalq ziyolilari gazetasi

Ayrim maktab rahbarlari Telegram guruhlarida o'qituvchilarni izza qiladi. Fikrimcha, rahbar qo'l ostidagi xodimining sharoiti, holatini bilishi va shunga qarab muomala qilishi kerak. Guruhda baqirib-chaqirgandan foyda yo'q.

Rahbar ham yoshidan qat'i nazar, ota-onadek gap. Bolaligimizda ota-onamizdan shirin gaplar eshitishni xohlardik. Arzimagan ishimizni ko'klarga ko'tarib maqtaganlarida ertasiga yana ham ko'proq ishlashga oshiqardik. Hozir rahbarimdan yaxshi gap eshitsam, xursand bo'laman, charchoqlarim yozilib ketadi.

Ayniqsa, Qorako'ldagi rahbarimni ko'p eslayman. Hammamizga motivatsiya berib, o'zgina ishimizni ko'pirtirib maqtar, bajarmaganlarni ham urishmasdi. Shuning uchun qariyb 20 yil rahbar bo'lib, nafaqaga chiqdi.

Sanobar BERDIYEVA

Normamat ESHONQULOV:

**YANA
ATTESTATSIYA
HAQIDA – 3**

yoxud ta'limga tutilgan ko'zgu...

50%

70%





Nuqtayi nazar



Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'zicha rivojlanuvchi mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa deb ham ataydilar. Hayotiy falsafaning doirasi esa juda keng bo'lib, u ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Donishmandlarimizning "Har kimning o'z falsafasi bor" degan gapidan ana shu hol anglashiladi. Demak, dunyoqarash o'zining kundalik ommaviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan xususiyatga ega. Shuning uchun ham ko'p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarni to'g'ri tushuntirish va baholashga ojizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish lozim. Maqolamizda ushbu ilmiy tahlil va bilish jarayoniga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro anjumanda o'rta tashlangan masalalar va muhim mavzularga to'xtalib o'tmoqchimiz.

yat kasb etmoqda. Ayniqsa, ma'naviy globallashuv ta'sirida tolerantlik tadqiqining murakkablashuvi, mazkur hodisa mohiyatini ta'riflashga nisbatan yondashuvlarning metodologik jihatdan xilma-xilligi, zamonaviy jamiyatda millatlararo tolerantlik namoyon bo'lishining ko'p qirraliligi mazkur muammoning konseptual asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ko'p millatli o'zbek xalqining bag'rikenglik madaniyati va insonparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlashdan iborat bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan

xiy rivojlanishda obyektiv jarayonlarni subyektiv omillardan ajrata olish kabi usullari va metodlari hozirgi zamon-da insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab yetish va amalda bartaraf qilishdagi muhim jarayondir. Bu jarayon esa bevosita falsafaning yangi tendensiyalarini vujudga keltiradi. Xalqaro konferensiyada ishtirokchilar Chirchiq davlat pedagogika universitetida yangi Xalqaro falsafiy tadqiqot markazini tashkil etish taklifini bildirishdi. Bu taklifni anjumaning barcha qatnashchilari qo'llab-quvvatladilar.

**Yagona yaxlit
makon orzusi**

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.Yaspers "Tarix kurtaklari va uning maqsadi" asarida, jumladan, shunday yozadi: "Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz Yerda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to'la ochiq bo'lgan yagona yaxlitlikka aylandi". Darhaqiqat, bugun yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi ezgu g'oyalar uchun bel bog'lagan dunyo ziyolilarining yagona yaxlit makoniga aylansa qaniydi...

Buyuk mutafakkir Imom G'az-zoliyning fikriga ko'ra, oqil kishilar uchun yer umumiy xonadondir, faqat johillargina u seniki desa, bu meniki deb talashadilar. Jaloliddin Rumiy esa "Dinlarga olib boruvchi yo'llar turfa, maqsadlar esa mushtarakdir", deya sof umuminsoniy qarashlarni rivojlantirdi. Bukabi boy ma'naviy merosimiz g'oyalarning yoshlarimiz qalbiga singdirilishi ko'p millatli mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, aqidaparastlik va ekstremizm g'oyalari bilan xalq ongini zaharlashga harakat qilayotgan fitnachi terrorchi guruhlariga qarshi kurashda katta g'oyaviy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Bugungi kunda yon-atrofimizda "diniy ekstremizm", "terrorizm", "giyohvandlik", "odam savdosi", "noqonuniy migratsiya", "ommaviy madaniyat" kabi balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada ayon bo'ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda".

Shunday ekan, bu kabi anjumanlarda ilgari surilayotgan dolzarb mavzular, tortishuvlar va munozaralar asosidagi ruhiy-ma'naviy birlik, ilmiy hamkorlik va global g'oyaviy yaxlitlik xalqaro maydondagi har bir tadqiqotchi va ziyolini yangi-yangi ma'rifat kengliklari sari chorlasa, ajab emas...

Ravshan IKROMOV,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti Gumanitar
fanlar fakulteti dekani,
professor

"HAR KIMNING O'Z FALSAFASI BOR"MI? yoxud ilmiy yaxlitlik, ruhiy birlik zarur!

**Fikr tarbiyasi eng
muhim vazifamizdir**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida yaqinda Chirchiq davlat pedagogika universitetida "Falsafa va e'tiqod: o'tmish, bugun va kelajak" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Unda xalqaro ekspertlar, respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, faylasuf va tasavvufshunos tadqiqotchi olimlar, magistratlar hamda iqtidorli talaba-yoshlar ishtirok etdi. Ushbu konferensiya nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Falsafa, avvalo, muayyan bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllaridan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro'y beradi. Eng muhimi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid'at va cheklanishlarga muxolif bo'lgan hurfiylikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo'ldi.

Darhaqiqat, fikr tarbiyasi, ya'ni hurfiylik falsafa fanining asosiy vazifasidir. Zero, taniqli faylasuflardan biri "Odamzod olam, odam hamda hayotning qadrini anglab, ular omonat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davr-

lardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf kim bo'lganidan qat'i nazar, hayotni qadrlaydigan kishi bo'lgani shubhasiz", deya bejiz ta'kidlamagan.

CHDPU anjumani ishtirokchilari o'z ma'ruzalarida falsafa insoniyat tafakkuri va madaniyati taraqqiyotida chuqur ildiz otgan, insonning olam, jamiyat va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini tushunishiga yordam beradigan yuksak ilm ekanligini ta'kidlashdi. Zero, bu fan o'tmishda ham, bugun ham, kelajakda ham jamiyat taraqqiyotining ma'naviy va aqliy tayanchi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sivilizatsiyalar to'qnashuvi va tezkor global o'zgarishlar davrida falsafa insonning ma'naviy qadriyatlarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlash, yosh avlodga yetuk dunyoqarashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Quvonarlisi shundaki, bu konferensiyada turli ilmiy maktab va qarashlar, tarixiy falsafiy meros, sharq va g'arb falsafasining o'zaro ta'siri, shuningdek, milliy falsafiy tafakkurning zamonaviy jarayonlardagi o'rni qizg'in muhokama qilindi. Mazkur fikrlar almashinuvi kelgusida nafaqat ilmiy salohiyatni oshirishi, balki yangi izlanishlarga ham turtki bo'lishiga ishonamiz.

**Globallashuv:
tafakkur va e'tiqod
uyg'unligi**

Jahon fanining rivojlanishi va shaxsning ijtimoiy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda millatlararo tolerantlikning o'rni, uning jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati hamda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi kabi hozirgi zamon fundamental falsafiy masalalarini tadqiq qilish muhim ilmiy ahami-

xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda. Jamiyatimizda yashovchi turli millat va dinlarga e'tiqod qiluvchilarning huquq va manfaatlarini yanada uyg'unlashtirish, globallashuv sharoitida uning jahon hamjamiyatiga erkin kirib borishi, xalqaro ekstremizm, terrorizmning turli shakllaridan muhofaza qilish hamda millatlararo tolerantlikni qaror toptirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

**O'rinli taklif va yangi
tendensiyalar**

Olimlar falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va g'am-tashvishlarini, balki uning so'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida tobora jadalroq sur'atlarda, shu jumladan, dunyo miqyosida o'zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettirishini bejiz ta'kidlashmaydi. Zero, ayni paytda yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, g'ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar tadqiqotchilarning ham, faylasuflarning ham e'tiborini tortmoqda. Bunda falsafaning fandan ustunligi shundaki – u o'z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o'tkinchi narsalarni osongina chetlab o'tadiki, bu unga asosiy e'tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi.

Falsafaning bunday fazilatlarini insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki "jamiyat-tabiat" tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo'layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan falsafiy tahlilning zarur narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tari-